



Xabib SODIKOV,

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: xabib.sodikov@gmail.com

BuxMTI professori, p.f.d F.R.Muradova taqrizi asosida

TEXNIKA YO'NALISHDAGI BAKALAVRIAT TALABALARINING ISHLAB CHIQARISHDA IJTIMOIY-AMALIY TAYYORGARLIGINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada texnika yo'nalishdagi bakalavriat talabalarining ishlab chiqarish korxonalariga ijtimoiy-amaliy tayyorgarligini shakllantirish modeli mazmuni yoritilgan. Modellashtirishning mazmuni mohiyati ochib berilgan bo'lib undagi bloklar va komponentlarga alohida urg'u berilgan. Pedagogik tadqiqotlarda modellashtirishning samaradorligi mazmuni yoritilgan. Texnika oliv ta'lif muassasalari talabalari ishlab chiqarishda ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorgarlikni shakllantirish uslubiyoti haqida ma'lumotlar berilgan.

Komit so'zlar: Texnika, bakalavr, ijtimoiy-amaliy, kasbiy, pedagogik, tahlil, tayyorlik, tizimli, kasbiy, ta'lif, talaba.

ФОРМИРОВАНИЕ СОЦИАЛЬНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ БАКАЛАВРИАТА ТЕХНИЧЕСКОГО НАПРАВЛЕНИЯ ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА

Аннотация

Статья освещает содержание модели формирования социально-практической подготовки студентов бакалавриата технического направления для работы на производственных предприятиях. Раскрыта сущность моделирования, с особым акцентом на блоки и компоненты модели. Описано содержание эффективности моделирования в педагогических исследованиях. Приведены данные о методике формирования готовности студентов технических высших учебных заведений к социальной и практической адаптации в производстве.

Ключевые слова: Техника, бакалавр, социально-практическая, профессиональная, педагогическая, анализ, готовность, системный, профессиональный, образование, студент.

FORMATION OF SOCIAL-PRACTICAL PREPARATION OF UNDERGRADUATE STUDENTS IN THE TECHNICAL FIELD FOR INDUSTRIAL PRODUCTION.

Annotation

The article covers the content of the model for forming the social-practical preparation of undergraduate students in the technical field for industrial enterprises. The essence of modeling is revealed with a special emphasis on the blocks and components of the model. The content of the effectiveness of modeling in pedagogical research is highlighted. Information is provided on the methodology for forming the readiness of students from technical higher educational institutions for social and practical adaptation in production.

Key words: Technical, undergraduate, social-practical, professional, pedagogical, analysis, readiness, systematic, professional, education, student.

Kirish. Texnika yo'nalishdagi bakalavriat talabalari ishlab chiqarishda ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorgarlik jarayonining mazmunini tahlil qilish, shuningdek, kelajakdagi muhandislik kadrlari tayyorgarligining mohiyati va tuzilmasi texnika oliv ta'lif muassasalari talabaiat talabalari ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorgarligini shakllantirish jarayonida pedagogik faoliyatni modellashtirish uchun asos bo'lib xizmat qildi. Modellashtirish usuliga murojaat qilish zarurati texnika oliv ta'lif muassasalari talabaiat talabalari ishlab chiqarishda ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorgarlik jarayonining murakkabligi, ko'p qirrali va uzoq davom etishi bilan bog'liq bo'lib, maqsaddan rejalashtirilgan natijaga yetish yo'lini aniq tushunishni talab etadi.

Modellashtirish bugungi kunda ilmiy-pedagogik tadqiqotlarda keng qo'llanmoqda. Modellashtirish usuliga bunday katta e'tibor qaratilishining sababi shundaki, bu usul "avvalgilarni tahlil qilish va kelajakni bashorat qilish orqali hozirgi rivojlanishga hissa qo'shishga imkon beradi".

Modellashtirish "ilmiy tadqiqotlar usuli bo'lib, turli obyektlar, jarayonlar va hokazolarni tadqiq etish maqsadida ular modellarini yaratish orqali, tadqiqot obyektining asosiy ajratilgan xususiyatlarini saqlab qolish" deb atash mumkin. Modellashtirish ilmiy-pedagogik tadqiqotlarning boshqa

usullaridan pedagogik obyektni bilvosita o'rGANISH orqali ajralib turadi. Modellashtirish usulining ilmiy ma'nosi pedagogik obyekt (jarayon, hodisa va hokazo) haqida zaruriy ma'lumotlarni o'rGANISH orqali olishdan iborat bo'lib, u ushu obyektdagi g'oyaviy (tafakkuriy) shaklni takrorlaydi. Shu munosabat bilan, modellashtirish jarayonining mohiyatini belgilovchi va uning natijasi hisoblangan narsa - modeldir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Begimqulov U.Sh., Muslimov N.A., Ismailova Z.K., pedagogikadagi modelni «fikran tasavvur etilgan yoki moddiy jihatdan amalga oshirilgan tizim, u asl tizimning ba'zi muhim xususiyatlarini shunday o'rinnbosarlik va o'xhashlik munosabatida takrorlaydiki, uni o'rGANISH asl nusxa haqidagi bilimlarni bilvosita olish usuli bo'lib xizmat qiladi» deb ta'riflaydi [2].

Modellarning amaliy faoliyatdagagi ahamiyati shundaki, olim va amaliyotchi model yaratish orqali pedagogik jarayonlarni oldindan ko'ra olish, loyihalashtirish, qayta shakllantirish va oxir-oqibatda ular ustidan boshqaruvi amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishadi, pedagogik g'oyalarni ilmiy sohadan amaliyotga o'tkazadilar.

Pedagogik tadqiqotlarda modellashtirishning samaradorligi bir qator talablarga rioya qilinishiga bog'liq bo'lib, ular orasida quyidagilar mavjud:

- ilmiy asoslanganlik, ya'ni modelni ishlab chiqishda asosiy metodologik yondashuvlar, nazariyalar, kontseptsiyalar va qoidalarni qo'llash;

- modelning pedagogik obyektga (jarayon, hodisa va h.k.) yo'naltirilganligi, bu modelning turi va uning strukturna xususiyatlarini belgilaydi;

- model komponentlari o'tasidagi o'zaro bog'liqlik, o'zaro bog'lanish va o'zaro qaramliklarni hisobga olish va ko'rsatish zaruriyat;

- modelda modellashtirilayotgan jarayonning yaxlitligini, shuningdek, uning amalga oshish shartlarini aks ettirish;

- modelning faoliyat ko'rsatadigan muhit xususiyatlarga mos kelishi;

- belgilangan maqsadga erishishni bashorat qilish imkoniyati va boshqa talablar [1].

Ushbu talablar har qanday turdagи pedagogik modelni ishlab chiqishda yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qiladi. Ular orasida quyidagi modellarning turlari ajratiladi:

- mazmuniy (model obyekti, jarayoni, hodisasing mazmuni modellashtirish obyekti bo'lib xizmat qiladi);

- strukturaviy (modellashtirish obyekti sifatida obyektning tuzilmasi, komponentlari o'tasidagi o'zaro bog'liqliklar bilan birgalikda tadqiq qilinadi);

- funksional (modellashtirish obyekti sifatida pedagogik jihatdan muhim bo'lgan vazifalar va ularning obyekt (jarayon, hodisa va h.k.) bilan bog'liqligi tadqiq qilinadi);

- "kvazitip" (struktura-mazmuniy, struktural-funksional, funksional-mazmuniy modellar bo'lib, pedagogik modellashtirishning ikki tomonlama obyekti mavjud) [3].

Pedagogik modelni ishlab chiqishda asosiy qoidalarni ko'plab tadqiqotlarda ifodalangan. Oliy ta'lim jarayoniga nisbatan pedagogik modelni ishlab chiqish g'oyalalarini to'g'ridan-to'g'ri Begimqulov U.Sh. [2], Muslimov N.A. [4], Ismailova Z.K. [5], O'rionov U.A. [6] va boshqalar ishlab chiqqan.

Tayyorlikning nazariy asoslangan tuzilmasi va pedagogik modellashtirish talablari asosida Texnika oliy ta'lim muassasalari talabaiat talabalari ishlab chiqarishda ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorgarligini shakllantirishning strukturaviy-mazmuniy modeli ishlab chiqildi. Model turi tanlanishi modellashtirish obyekti bo'lgan tayyorgarlikning o'zgarishlarini oliy o'quv yurtidagi ta'lim jarayonida kuzatishni hisobga olgan holda, obyektni ham statik, ham dinamik holatda ko'rib chiqish zarurati bilan belgilanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Modelning maqsadli bloki o'z ichiga quyidagilarni oladi: jamiyat va shaxsning ijtimoiy buyurtmasi asosida shakllantirilgan maqsad, belgilangan maqsadga erishish vazifalar, shuningdek, bu vazifalarning amalga oshirilishini belgilovchi metodologik yondashuvlar va tamoyillar. Butun modelning strategik yo'naliishi va tizimi shakllovchi elementi sifatida maqsad pedagogik faoliyatning rejlashtirilgan natijasi bo'lib, unga yaxlitlik va yakuniylik baxsh etadi.

Modelning faoliyat ko'rsatish maqsadi, bir tomonidan, jamiyatning innovatsion ishlab chiqarish sharoitida samarali faoliyat ko'rsata oladigan texnik kadrlarga bo'lgan ehtiyoji bilan, boshqa tomonдан esa, yosh Texnika oliy ta'lim muassasalari talabaning ishlab chiqarishda ijtimoiy-amaliy moslashuvi, ya'ni talabalar o'zini namoyon qilish va kasbiy o'sishi uchun zarur bo'lgan sharoit sifatida, bog'liqdir. Shu munosabat bilan modellashtirilgan jarayonning maqsadi - texnika yo'naliishdagi bakalavriat talabalari ishlab chiqarishda ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorgarligini shakllantirishdir.

Maqsadni amalga oshirish esa uni aniq yo'llar va amaliyotda qanday amalga oshirilishini aks ettiruvchi

pedagogik refleksiya natijasi sifatida aniq vazifalar shaklida belgilangan. Ushbu vazifalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Ishlab chiqarishda ijtimoiy-amaliy moslashuv jarayonida namoyon bo'ladigan ehtiyojlar, motivlar, munosabatlar va qarashlar tizimini shakllantirish.

2. Kasbiy va moslashuvchan bilimlar va tushunchalar tizimini shakllantirish.

3. Ijtimoiy-amaliy moslashuv sharoitida amaliyotda bilimlarni qo'llash tajribasini ko'nikma va malakalar shaklida shakllantirish.

4. Ishlab chiqarishda ijtimoiy-amaliy moslashuv jarayonida faoliyatning o'zini tahlil qilish, baholash va o'zini tuzatishga tayyorlikni shakllantirish.

Belgilangan vazifalarni amaliy hal qilish samaradorligi tizimli, kompetentlik va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarning asosiy tamoyillari asosida shakllantirilgan qoidalarni majmuasini amalga oshirish orqali belgilanadi [6].

Tizimli yondashuv ilmiy, shu jumladan psixologik va pedagogik tadqiqotlarda keng qo'llaniladi. Bu yondashuv "obyektni barcha elementlarining o'zaro bog'liqligi nuqtai nazaridan yagona butun sifatida kompleks o'rganish, tizimdag'i har bir elementning umumiyligi faoliyat va rivojlanish jarayonida o'rganilishi, tizimning umumiyligi sifatlarining butunlik elementiga ta'sirini o'rganish" sifatida ta'riflanadi.

Texnika oliy ta'lim muassasalari talabaiat talabalari ishlab chiqarishda ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorgarlikni shakllantirish vazifasini hal qilishda tizimli yondashuv quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- tayyorgarlikni murakkab tuzilishga ega bo'lgan, o'zaro bog'liq va o'zaro qaram komponentlardan iborat integrativ shaxsiy tuzilma sifatida aniqlash;

- oliy ta'limdag'i ta'lim jarayonini ko'p komponentli pedagogik tizim sifatida ko'rib chiqish, bu jarayon atrof-muhit bilan faol o'zaro ta'sir qilishda rivojlanish tendentsiyasiga ega bo'lib, auditoriyadagi va auditoriyadan tashqaridagi ish jarayonida ta'lim, tarbiya va rivojlanishning yaxlitligi bilan tavsiflanadi;

- modellashtirish usulidan foydalanish, ya'ni o'zaro bog'liq komponentlardan tashkil topgan model yaratish.

Tizimli yondashuv nuqtai nazaridan texnika oliy ta'lim muassasalari talabaiat talabalari ishlab chiqarishda ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorgarlikni shakllantirish oliy ta'limda amalga oshiriladigan kasbiy tayyorgarlikning xususiy pedagogik kichik tizimi sifatida ko'rib chiqiladi. Bu esa o'zaro bog'liq elementlar va munosabatlarning ierarxik jihatdan o'zaro bo'y sunuvchi yaxlitligini ifodelaydi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Texnika oliy ta'lim muassasalari talabaiat talabalari ishlab chiqarishda ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorgarlikni shakllantirish masalasini amaliy hal qilishda tizimli yondashuv quyidagi tamoyillar orqali amalga oshiriladi:

1. Yaxlitlik tamoyili – bu oliy ta'limdag'i ta'lim jarayonining barcha tarkibiy elementlarining birligi va o'zaro bog'liqligini anglatadi. Mazkur tamoyil talabalarning tayyorgarligi integrativ shaxsiy tuzilma sifatida shakllantirilishi jarayonida namoyon bo'ladi. Uning amalga oshirilishi modelning bloklarini o'zaro bog'liq va oliy ta'lim jarayonining tuzilmasi bilan muvofiqlashtirilgan holda amalga oshirishni, shuningdek, tayyorgarlikning yaxlitligini ta'minlaydi. Bu tamoyil o'zaro bog'liq fanlararo va fandagi aloqalar, auditoriya va auditoriyadan tashqari faoliyatlarining birligi orqali qo'llab-quvvatlanadi.

2. Har tomonlama va komplekslik tamoyili – bu tamoyil Texnika oliy ta'lim muassasasi talabalari ishlab chiqarishda ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorgarligini shakllantirish jarayonida ta'lim jarayonining barcha tomonlari va barcha ishtirokchilarini jalb etishni anglatadi. Bu tayyorgarlikni shakllantirishga ta'sir ko'rsatuvchi tashqi va ichki omillar majmuasini hisobga olinadi.

Tizimli yondashuv kompetentlik yondashuvining g'oya va tamoyillari bilan birgalikda qo'llaniladi. Kompetentlik yondashuv kontekstida oliy ta'limga kasbiy tayyorgarlik jarayonida talabalarning turli muammolarni hal qilishda o'z shaxsiy tajribalarini qo'llashga asoslangan ko'nikmalar va malakalarini shakllantirish maqsadi ko'zda tutiladi. Bu jarayonning natijasi bitiruvchining kompetentligi bilan o'lchanadi.

Kompetentlik – bu “shaxsnинг kasbiy va shaxsiy rivojlanishini, o'zini o'zi rivojlantirishni, fundamental bilimlar va amaliy tajriba asosida mutaxassisining faoliyatga yo'naltirilgan holatini shakllantirishni ta'minlaydigan, murakkab shaxsiy tuzilmaga asoslangan integratsiyalangan shaxsiy xususiyatdir”. Texnik yo'nalishdagi talabalarning ishlab chiqarishda ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorligi ham, kompetentlik singari, integrativ shaxsiy xususiyat bo'lib, bir qator komponentlarni o'z ichiga oladi [7].

Kompetentlik yondashuvni nuqtai nazaridan ta'limga mazmuni “bilimlar, dunyoqarash, axloqiy, siyosiy va boshqa muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan didaktik jihatdan moslashtirilgan ijtimoiy tajriba” sifatida ko'rib chiqiladi. Bu esa “talabaga yo'naltirilganlik”, modul asosidagi kurslar va amaliy bilimlarga o'tishni belgilaydi.

Oliy ta'limga maqsadlar va ta'limga mazmunining o'zgarishi, kompetentlik yondashuvining asosiy qoidalari kontekstida, ta'limga jarayonini tashkil etishda ham o'zgarishlarga olib keladi. Shu munosabat bilan quyidagilar yuz beradi: pedagogik va o'quv-bilim jarayonining muammolilik va dialogiklik tomoniga o'zgarishi; kasbiy tayyorgarlikning amaliy yo'nalishi kuchayishi; mustaqil ishning roli oshishi va unga o'quv rejasida ajratilgan soatlarni keskin ko'payishi; modul texnologiyasi va faol hamda interaktiv ta'limga usullaridan keng foydalanish.

Oliy ta'limga kasbiy tayyorgarlik natijalarini baholash kompetentlik yondashuvni nuqtai nazaridan oliy ta'limga jarayonining maqsadli yo'nalishlariga mos keladi va bitiruvchilarning kompetentlik darajasini aniqlashni anglatadi. Oliy ta'limga kasbiy tayyorgarlik natijalarini kompetentlik yondashuvni paradigmaside tushunish, bir tomonidan, bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirishga, boshqa tomonidan, innovatsion ishlab chiqarish sharoitida ishlashga tayyor kadrlar tayyorlash bo'yicha jamiyat talabini qondirishga yordam beradi. Bu ta'limga natijalarini ko'rish Texnika oliy ta'limga muassasalarini talabalarni ishlab chiqarishda ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorlash vazifasi bilan uyg'un keladi.

Texnika oliy ta'limga muassasasi talabalari ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorgarligini shakllantirish masalasini hal qilishga nisbatan kompetentlik yondashuvni quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

- Ushbu tayyorgarlikni talabalarning kasbiy tayyorgarligining tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqish va

ADABIYOTLAR

1. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – М.: «Просвещение», 1995. – 336 с.
2. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'limga jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti.: Ped.fan.dokt. ... diss. avtoref. - Т.: 2007. - 37 б.
3. Джураев Р.Х. Организационно - педагогические основы интенсификации системы профессионального подготовки в учебных заведениях профессионального образования: Автореф. дисс ... док.пед.наук.-Т.: 1995. - 43с.
4. Muslimov N.A. Pedagogik faoliyatga tizimli yondashuv muammolari // Kasb-hunar ta'limi. – 2004. - № 3. – В.24.
5. Ismailov Z.K. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning nazariy va eksperimental-metodik asoslar: Diss. ... ped. fan. dok. – Т.: 2006. – 345 b.
6. O'rinnov U.A. Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda masofaviy ta'lanning afzallikkari. "O'zMU xabarlar". Ilmiy jurnal. Toshkent, 2020. №1/2, 148-151 b.
7. O'rinnov U.A. Nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishda masofaviy ta'limga tizimini tashkil etish prinsiplari. "Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari". Ilmiy-nazariy jurnal. Toshkent, 2020. №3,196-203b.
8. Ходжабоев А.Р. Научно-педагогические основы учебно - методического комплекса подготовки учителя труда: Автореф. дис. ... докт. пед. наук. -Т.: ТДПУ, 1992. – 42 б.
9. Уразова М.Б. Бўлажак касбий таълим педагогини лойиҳалаш фаолиятига тайёрлаш технологиясини такомиллаштириш: Пед.фан.докт. ... дисс. –Т.: ТДПУ, 2015. -260 б.

ularni mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshiruvchi muhim ta'limga natijalaridan biri sifatida belgilash;

- Oliy ta'limga muassasasinga ta'limga jarayonida shakllanayotgan kompetensiyalar asosida tayyorlanayotgan bakalavrлarni ishlab chiqarishga ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorlash tuzilmasini va mazmunini aniqlash;

- Ta'limga mazmunini maxsus tanlash, innovatsion usul va vositalardan keng foydalanish, shuningdek, pedagogik o'zaro aloqaga dialogik xarakter berish orqali Texnika oliy ta'limga muassasasi talabalari muammoli vaziyatlarni hal qilish tajribasini shakllantirish;

- O'quv jarayonining mazmunini tanlash, tashkil etish va natijalarini baholashda ish beruvchilarning talabi va mehnat bozorining ehtiyojlarini hisobga olish.

Kompetentlik yondashuvni Texnika oliy ta'limga muassasasi talabalari ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorgarligini shakllantirish masalasini hal qilishda quyidagi tamoyillar orqali amalga oshiriladi:

- 1. Amaliy yo'naltirilganlik tamoyili – bu ta'limga maqsadlari va mazmunini aniqlash, shuningdek, ularni amalga oshirish texnologik vositalarini ishlab chiqishda kelajakdagagi kasbiy faoliyatning o'ziga xosligini, mehnat bozorining dolzarb talablari va ishlab chiqarish texnologiyalarini rivojlanishining istiqbolli yo'nalishlarini hisobga olishga asoslangan.

- 2. Intensifikasiya tamoyili – bu innovatsion ta'limga texnologiyalarini qo'llash, shuningdek, Texnika oliy ta'limga muassasasi talabalari ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorgarligini shakllantirish jarayonini tizimli ravishda monitoring qilish va keyinchalik uni tuzatishni o'z ichiga oladi [8]. Texnika yo'nalishdagi Oliy ta'limga standarti bo'yicha 60711400 - transport vositalari muhandisligi bakalavriat o'quv jarayonida talabalarda umumiy madaniy, umumkasbiy va kasbiy kompetensiyalar shakllanadi, ular kasbiy faoliyatga tayyorlikning muhim sharti va ijtimoiy-amaliy moslashuvning muvaffaqiyati bo'lishi uchun asosdir.

Tadqiqot vazifasini kompetentlik yondashuvni nuqtai nazaridan hal qilish, asosan, ijtimoiy buyurtmani bajarishga yo'naltirilgan. Tayyorlikning mohiyatini integrativ shaxsiy ta'limga sifatida tushungan holda, Texnika oliy ta'limga muassasasi talabalari ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyorgarligini shakllantirish modelini ishlab chiqish jarayonida kompetentlik yondashuvni shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning g'oyalari va tamoyillari bilan to'ldirildi.

Xulosa va takliflar. Texnika oliy ta'limga muassasalarini talabalarga yuqori darajadagi professional kompetensiyalarini shakllantirish va ijtimoiy-amaliy moslashuvga tayyor bo'lishini ta'minlash uchun yuqorida ta'riflangan modelni ta'limga jarayoniga joriy qilish zarur. Uning samaradorligi tajriba orqali tekshiriladi va natijalar taqdirm etiladi.